

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVO-MADANIYATSHUNOSLIK FANINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA ULARNING TIL BIRLIKALARINI O'RGANISHDAGI XUSUSIYATLARI

Ulmasova Nodira Mashrabovna

Qo`qon Davlat Pedagogika Instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382946>

Annotatsiya: Mazkur maqolada, birinchidan, lingvo-madaniyatshunoslik bo'yicha umumiy qarashlarga to'xtalib o'tilgan. Yana, lingvo-madaniyatshunoslikda yangi terminlar hosil qilish usullari aniq misollar bilan keng yoritib berilgan, hamda ingliz va o'zbek tilida ular qiyoslangan, o'xshash va farqli tomonlari ko'rsatilgan. Shu bilan birga, lingvo-madaniyatshunoslikda birikmalar ,yangi terminlar,ularning paydo bo'lismiga ham alohida e'tibor qaratilgan va ignliz va o'zbek tillarida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: matn, pretsedent birliklar, grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvo-madaniyatshunoslik,logo-epistema.

Kirish. Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi – yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai – nazardan bugungi kunda matn xususan, presedent birliklar tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniy kabi qator yo'naliishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomonidan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvomadaniy masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

Asosiy qism.Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi.Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham bu yo'lda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida M.Nasrullahayeva, G.Yergasheva, K. Raximovning ishlarini, A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvomadaniyyo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovaning "Lingvomadaniyatning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvomadaniyatshunoslikning komponentlari" nomli maqolalarini olish mumkin.

Lingvomadaniyatshunoslik – "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Keyingi paytlarda tilshunoslikda "logoepistema" termini va tushunchasi ishlatala boshladi. Professor V.G.Kostomarov, V.V.Krasnix, V.V.Proxorov, N.N.Tatarinova va boshqalarning

asarlarida paydo bo'ldi. Logoepistema atamasi soddarоq qilib aytganda "Tilning madaniyatdagi va madaniyatning tildagi izidir".

Logoepistema termini grekcha "logos - til, ta'limot" va "epistema" -bilish, tushunishga olib keluvchi bilimlar majmui" ma'nosini beradi. Masalan: O'zbek tilidagi "o'quvchi bolaga televizorni kim qo'yibdi", "konservatoriyaga kirish uchun konserva zavodida tayyorgarlik ko'rayapti", "o'nta qo'y nima bo'ladi", "yashash yaxshi yaxshi yashash yanada yaxshi", "O'zbekning kichigi bo'lgandan ko'ra qirg'izning kuchugi bo'l!" va hk. Logoepistemaning quyidagi lingvistik xususiyatlarini aytib o'tish mumkin.

Logoepistema so'z, so'z birikmasi, gap va tekst yordamida ifodolanishi mumkin. Logoepistema konkret bir tilga tegishliligi bilinib turadi. Uni yaratgan matn yoki situasiyani ko'rsatib turadi. Muloqot jarayonida boshqatdan yaratilmaydi, yangilanadi. Muloqot jarayonida ayrim o'zgarishlarni boshidan kechirishi mumkin. Madaniy xarakterdagi ayrim bilimni o'zida aks ettiradi. Semiotik va simvolik xarakterga ega. Chunki u jamiyatda qo'llanilayotgan til tizimining elementidir. Germenevtik xarakterga ega, chunki uni tushunish uchun madaniyatning artefaktlari yoki matnlar bilan tanish bo'lish kerak. Didaktik xarakterga ega, chunki uni o'rganish jarayonida inson madaniyat bilan tanishib boradi.

Tilshunoslikning amaliy tomoni shundaki, u tilni jamoaviy tajribaga qaratilgan konseptual vosita sifatida tushunishidadir. E.I.Sheygal va V.A.Buryakovskaya ishlarida lingokulturologiya "dunyodagi konseptual tasvirning individual obyektlarini va ularni tushunish obyekti nuqtai nazaridan jamoatchilik ongini va tilni tushunish" ni o'rganadigan bir jarayon deb tavsiflanadi. O.I.Kourovaning fikriga ko'ra¹, lingvokulturologiyatil va madaniyatning til va madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettiradigan tizimlar shaklidagi o'zaro ta'sirini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir. Til-madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalari: til-madaniy paradigma, madaniy konsepsiya, dunyo manzarasining lingvistik tasviri, konsepsiya va boshqalar.

Xulosa. Shunday qilib, ushbu fanning hozirgi nazariy va metodologik asoslari to'liq tadqiq etildi deya olmaymiz. Chunki, hozirda olimlar o'rtasida lingvomadaniy fanining statusi haqida aniq bir fikr mavjud emas. Lingvomadaniy tadqiqotlarni o'rganish odatda tilni madaniyat bilan uzviy aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, ayrim konsepsiyalarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator ishlar ham mavjud.

References:

1. O.I.Kourova-Lingvistika teksta: Kurs leksiy. - SPb.: Izd-vo SPbGU, 2007. -336 s.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды МИФЛИ. Том 5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939.
3. Yo'ldoshev I. Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA"-2007.
4. Yo'ldoshev I. O'zbek kitobchilik terminologiyasi. —Toshkent. Fan, 2004.
5. Karasik V.I. Yazikovoy krug: lichnost, konsepti, diskurs. Volgograd: Peremena, 2002. - 365 s

6. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol.1 June 2021.
7. Sheygal YE.I. Semiotika politicheskogo diskursa: MonografiY. - M.: ITDGK «Gnozis», 2004. - 326 s
8. HojiyevA. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002.
9. Malika, R. (2021). ISSN: 2249-7137 Vol. 11.
10. Rajapova, M. (2023). BADIY USLUB VA ALLEGORIYANING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI TADQIQI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(9), 121-124.
11. Rajapova, M. (2023). STUDY OF DISCOURSE AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ALLEGORY. Наука и технология в современном мире, 2(17), 53-55.
12. Rajapova, M., & Mamadaliyeva, M. (2023, April). INTERPRETATION OF ALLEGORICAL MEANS IN DISCOURSE. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 1, pp. 15-19).
13. Ҳайдарова, Г. А. (2022). XX аср ўзбек ғазалларининг вазн хусусиятига доир. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 241-245.
14. Ҳайдарова, Г. (2021). СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).
15. Ҳайдарова, Г. (2021). СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).
16. Чошанов, М. А., Сластенин, Б. А., Монахов, В. М., Скипнер, Б., Гибсон, С., Сакамото, Т., ... & Ведемейер, С. (2017). Место педагогических технологий в обучении в вузе. Молодой учёный, 1, 432.
17. Alimsaidova, S. A. (2021). Historical and literary texts as the basis for teaching a non-native language. Current research journal of pedagogics, 2(10), 204-208. 0
18. Sayyora, A. (2022). METHODS OF SELECTING TEXTS WHEN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
19. Sayyora, A. (2022). IMPROVEMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 313-316.